

O‘ZBEKISTONDA METAPNEVMOVIRUSNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIK CHORA- TADBIRLAR

Xudoyqulov J.B., Xamzayeva N.T

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O‘zbekiston

Metapnevmovirus (HMPV) — virusli infeksiya bo‘lib, *Pneumoviridae* oilasiga mansub va asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Kam hollarda esa ifloslangan yuzalar bilan aloqa orqali ham tarqalishi mumkin. Ushbu virus odatda kuz-qish mavsumida faol tarqaladi va asosan immuniteti zaif bolalar, qariyalar hamda surunkali kasalliklarga ega insonlar uchun xavfli hisoblanadi.

Virusning dunyo bo‘yicha tarqalganlik holati: Metapnevmovirus yangi turdagi virus bo‘lmay, 2001-yilda Niderlandiyada aniqlangan va o‘tkir respirator virusli infeksiyalar guruhiga kiritilgan. HMPV burun oqishi, yo‘tal va isitma kabi belgilari bilan kechadigan o‘tkir respirator infeksiyalar shaklida namoyon bo‘ladi, ba’zi hollarda esa bronxiolit va pnevmoniya rivojlanishiga olib keladi. Xitoy Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish boshqarmasi tomonidan 2024-yilning 23-29-dekabr kunlari shimoliy hududlardagi shifoxonalarga murojaat qilgan bolalar orasida HMPV aniqlanganligi haqida xabar berildi. Ushbu davrda o‘tkir respirator infeksiyalar va grippning A turi, rinovirus, mikoplazmali pnevmoniya hamda koronavirus holatlari ham qayd etildi.

Statistik tahlil: 2024-2025-yilgi gripp va o‘tkir respirator infeksiyalar mavsumida metapnevmovirusning salmog‘i:

- Qozog‘istonda — 1,6%
- Rossiya Federatsiyasida — 0,1%
- O‘zbekistonda — 1,2%

O‘zbekistonda o‘tkazilgan laboratoriya tekshiruvlariga ko‘ra, Toshkent shahrida o‘tkir respirator infeksiyalar orasida: Gripp virusi — 36,9%, Rinovirus

— 30,2%, Respirator-sinsitial virus — 28,6%, Metapnevmovirus — 1,2%,
Boshqa viruslar — 3,1% tashkil etmoqda .

Epidemiologik vaziyatni baholash: O‘zbekistonda mavsumiy o‘tkir respirator infeksiyalarning ko‘tarilishi kuzatilmoqda. Ushbu kasalliklar aholi salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirib, sog‘liqni saqlash tizimiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Shu sababli, profilaktik chora-tadbirlarni kechiktirmasdan amalga oshirish muhimdir.

Profilaktik chora-tadbirlarga quyidagi choralarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Epidemik vaziyatni monitoring qilish:
 - Gripp va o‘tkir respirator infeksiyalar tarqalishini o‘z vaqtida aniqlash uchun ma‘muriy hududlarda tahlillarni kuchaytirish.
2. Birlamchi patronaj tizimi faolligini oshirish:
 - Markaziy va oilaviy poliklinikalar tomonidan kasalliklarni erta aniqlash ishlarini jadallashtirish.
3. Homilador ayollarni izolyatsiyalash:
 - Tug‘ruqxonada gripp va pnevmoniya alomatlari bo‘lgan bemorlarni izolyatsiya qilish va alohida kuzatuvga olish.
4. Davolash muassasalarida profilaktika:
 - Shifoxona ichi infeksiyalarini oldini olish bo‘yicha komissiya yig‘ilishlarini tashkil etish va zaruriy choralarni ko‘rish.
5. Sanitariya talablariga amal qilish:
 - Davolash-profilaktika va o‘quv muassasalari, shuningdek, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarida gigiyena va issiqlik rejimlariga rioya qilish.
6. Bolalar muassasalarida filtr tizimini kuchaytirish:
 - Maktablar, bog‘chalar, kollej va litseylarda tana harorati yuqori bolalarni aniqlash va nazorat qilish tizimini takomillashtirish.

Xulosa: Metapnevmovirus va boshqa o‘tkir respirator infeksiyalarni erta aniqlash va ularning tarqalishini oldini olish maqsadida tizimli yondashuv talab

etiladi. Epidemiologik vaziyatni nazorat qilish, patronaj tizimining samaradorligini oshirish va shifoxonalarda infeksiyalarni tarqalishini oldini olish bo'yicha faol chora-tadbirlar orqali epidemik xavfni kamaytirish mumkin. Barcha mutasaddi tashkilotlar va aholi sog'liqni saqlashda qatnashuvchi xodimlar birgalikda harakat qilishi, xususan, profilaktik tadbirlarga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Bu, nafaqat kasalliklarning barvaqt oldini olishga, balki aholi salomatligini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Goraichuk, I. V., Torchetti, M. K., Killian, M. L., Kapczynski, D. R., Sary, K., Kulkarni, A., & Suarez, D. L. (2024). Introduction of Avian metapneumovirus subtype A to the United States: molecular insights and implications. *Frontiers in Microbiology, 15*, 1428248.
2. Miyakawa, R., Zhang, H., Brooks, W. A., Prosperi, C., Baggett, H. C., Feikin, D. R., ... & Knoll, M. D. (2024). Epidemiology of human metapneumovirus among children with severe or very severe pneumonia in high pneumonia burden settings: the Pneumonia Etiology Research for Child Health (PERCH) study experience. *Clinical Microbiology and Infection*.
3. Kuang, L., Xu, T., Wang, C., Xie, J., Zhang, Y., Guo, M., ... & Zhu, B. (2024). Changes in the epidemiological patterns of respiratory syncytial virus and human metapneumovirus infection among pediatric patients and their correlation with severe cases: a long-term retrospective study. *Frontiers in Cellular and Infection Microbiology, 14*, 1435294.
4. Feng, Y., He, T., Zhang, B., Yuan, H., & Zhou, Y. (2024). Epidemiology and diagnosis technologies of human metapneumovirus in China: a mini review. *Virology Journal, 21*(1), 59.
5. MATNAZAROVA, G., MIRTAZAEV, O., BRYANTSEVA, E., ABDUKAKHAROVA, M., NEMATOVA, N., & KHAMZAEVA, N. (2020). The new coronavirus-COVID-19 in Uzbekistan. *International Journal of Pharmaceutical Research (09752366)*, 12(4).

6. Toshtemirovna, X. N., Sultanovna, M. G., & Vali o'g'li, M. R. (2023). O 'zbekistonning koronavirusga qarshi kurashishdagi tajribasi, Koronavirus bilan uch yil. *IQRO*, 3(1), 207-211.
7. Khamzaeva, N. T., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., & Abdukaxarova, M. F. (2024). CORONAVIRUS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN DURING 2020-2023 RETROSPECTIVE EPIDEMIOLOGICAL ANALYSIS OF THE DISEASE (TASHKENT CITY AS AN EXAMPLE). *World Bulletin of Public Health*, 33, 108-114.
8. Курбаниязова, М. О., Маденбаева, Г. И., Хамзаева, Н. Т., & Курбанбаева, Б. Р. (2024). ПРОБЛЕМЫ БЕЗОПАСНОГО И ДОСТУПНОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 31(2), 62-73.
9. Маденбаева, Г. И., Матназарова, Г. С., Хамзаева, Н. Т., & Курбаниязова, М. О. (2024). ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ РАКОМ ПИЩЕВОДА В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАНЕ. *Journal of new century innovations*, 49(2), 37-44.
10. Хамзаева, Н. Т., Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С., & Абдукаххарова, М. Ф. (2024). ТОШКЕНТ ШАҲРИДА 2020-2023 ЙИЛЛАР МОБАЙНИДА КОРОНАВИРУС COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН КАСАЛЛАНИШНИНГ РЕТРОСПЕКТИВ ЭПИДЕМИОЛОГИК ТАҲЛИЛИ. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbqiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 31(1), 189-193.